

ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



VOLUME 3, ISSUE 4 **2025**

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

3 JILD, 4 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 3, HОMEP 4

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 3, ISSUE 4



«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MA'MUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№4 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2025-4>

Бош муҳаррир: | Главный редактор:
Chief Editor:

Urazbayeva Dilbar Abdullayevna
Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ma'mun Universiteti NTM

Бош муҳаррир ўринбосари: | Заместитель
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

Xudoynazarov Egambergan Madrahimovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent Ma'mun Universiteti NTM

TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

FILOLOGIYA FANLARI (INGLIZ TILI)

Axmedov Oybek Saporboyevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

O'rozboyev Abdulla Durdibayevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ma'mun Universiteti NTM

Kalandarov Oybek Ruzimbayevich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Yakubov Muzaffar Kamildjanovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Galiyeva Margarita Rafaelovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Nasrullayeva Nafisa Zafarovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Samarqand davlat chet tillari instituti

Cho'ponov Otanazar Otojonovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)
Urganch davlat universiteti

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Samandarova Lola Sultanovna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

FILOLOGIYA FANLARI (RUS TILI)

Cho'ponov Otanazar Otojonovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)
Urganch davlat universiteti

Ruzmetov Surojbek Allaberganovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch davlat universiteti

FILOLOGIYA FANLARI (NEMIS)

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch davlat universiteti

FILOLOGIYA FANLARI (O'ZBEK TILI)

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

TARIX FANLARI

Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev

Tarix fanlari doktori, professor; akademik
O'zbekiston Respublikasi Fanlar
akademiyasining haqiqiy a'zosi

Ashirov Adhamjon Azimbayevich

Tarix fanlari doktori, professor,
O'zbekiston Respublikasi
Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

Goncharov Yuriy Mixaylovich

Tarix fanlari doktori, professor
Altay davlat universiteti Rossiya

Shaydurov Vladimir Nikolayevich

Tarix fanlari doktori, dotsent
Leningrad davlat universiteti Rossiya

Abdullayev Utkir Ismoilovich

Tarix fanlari doktori (DSc),
dotsent Urganch davlat universiteti

Matkarimova Sadoqat Maqsudovna

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent
Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Timur Pulatovich

Tarix fanlari nomzodi, dotsent
Ma'mun Universiteti NTM

Abdalov Umidbek Matniyazovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

Jumaniyozova Mamlakat Tojiyevna

Tarix fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Urganch davlat universiteti

Xo'jamuratov Umarjon Rustamovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch pedagogika instituti

PSIXOLOGIYA FANLARI

Shoumarov G'ayrat Baxromovich

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik
O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

Kryukova Tatyana Leonidovna

Psixologiya fanlari doktori, professor
Kostroma davlat universiteti Belorusiya

Karpinskiy Konstantin Viktorovich

Psixologiya fanlari doktori, professor
Grodno davlat universiteti Belorusiya

IQTISODIYOT FANLARI

Ruzmetov Baxtiyar

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ma'mun Universiteti NTM

Sherov Alisher Bakberganovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Voronsova Yuliya Vladimirovna

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

Jabborov Umarbek Rustambekovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Cho'ponov San'at Otanazarovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Niyazmetov Islambek Masharipovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI

Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'gli

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Adilov Zafar Yunusovich

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Slepko Yuriy Nikolayevich

Psixologiya fanlari doktori, professor

Yaroslav davlat pedagogika universiteti

Xazova Svetlana Abduraxmanovna

Psixologiya fanlari doktori, dotsent Kostroma
davlat universiteti Belorusiya

Kalandarova Madina Baxadirovna

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

TIBBIYOT FANLARI

Yuldashev Baxrom Sobirjanevich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Ravshanbek Babajonovich

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Esamuratov Aybek Ibragimovich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Samandarova Barno Sultonovna

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Tajiyeva Zebo Baxodirovna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Nazarova Maloxat Berdiboyevna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Xudaynazarova Salomat Ruzibaevna

Tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti

ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI

Sultanov Samandar Maxmud o'g'li

Arxeolog (tadqiqotchi pedagog)

Ma'mun Universiteti NTM

FILOLOGIYA

1. Искандарова Нодира Бахрамбековна
ВОСТОК В ЗАПАДНОМ КОНТЕКСТЕ: АДАПТАЦИЯ ОРИЕНТАЛЬНЫХ ОБРАЗОВ В
НЕМЕЦКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ XIX-XX ВЕКОВ.....7
2. Сапаева Хилола Бахромбековна
ЭКОЛОГИЯ И УТИЛИЗАЦИЯ ОТХОДОВ: СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ТЕРМИНОВ В
РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ.....14
3. Mamirova Xayriniso Komiljon qizi
BOLALAR NUTQIDA KO‘P MA’NOLI SO‘ZLARINING O‘ZLASHTIRILISHI: KOGNITIV VA
PSIXOLINGVISTIK YONDASHUVLAR.....18
4. Pulat Fozilov
INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI FIZIOLOGIK HOLAT FE‘LLARINING IZOHLI
LUG‘ATLARDAGI TALQINI.....23
5. Masharipov Jakhongir Axmedovich
MORPHOLOGICAL CHALLENGES IN TRANSLATING TRANSPORT TERMINOLOGY
BETWEEN ENGLISH AND UZBEK.....28

IQTISODIYOT

1. Pirnafasov Sarvar Bardiboyevich, Sattarova Mahfuza Dilshodbekovna
MINTAQADA QULAY INVESTITSION MUHITNI SHAKLLANTIRISHNI
TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI.....32
2. Sattarova Dilfuza Dilshodbekovna
MINTAQADA IQTISODIYOT TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISHDA ISLOM MOLIVASI
TASHKIOTLARINI JALB QILISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI.....38
3. Mavlanova Barchinoy Shonazar qizi
XORAZM VILOYATI MINTAQASIDA ERKIN IQTISODIY ZONALAR SAMARADORLIGINI
OSHIRISHNING INNOVATSION YO‘NALISHLARI.....45

PEDAGOGIKA

1. Usanova Zulfiya Bozorovna
HOZIRGI INNOVATSION TA’LIM MUHITIDA PEDAGOGIK HAMKORLIKNI
RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK TIZIMI (OLIY VA UMUMIY O‘RTA TA’LIM
MISOLIDA).....54

TARIX

1. Tuyev Fazliddin Erkinovich
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIGA CHET EL INVESTITSİYALARINING KIRITILISHI:
2003-2008 YILLAR ZARAFSHON VOHASI MISOLIDA.....59
2. Jumaniyazov Bekzod Ochilovich, Sabanova Nilufar Baxodir qizi
FUQAROLIK JAMIYATI TARIXIY BOSQICHLARI.....64

3. Salayev Dilshodbek Jumanazarovich TURKIY DAVLATLAR INTEGRATSIYASINING TADRIJI (EVOLYUTSIYASI) VA O'ZBEKISTONNING TASHKILOTGA A'ZO BO'LISHI.....	68
4. Xayitmuratova Zaynura G'aybullayevna QADIMGY MARKAZIY OSIYO XALQLARINING METROLOGIK TIZIMI: O'LCHOV BIRLIKLARINING PAYDO BO'LISHI VA RIVOJLANISHI.....	73
5. Muborak Madrimovna Matyakubova XIVA XONLIGINING BOSIB OLINISHI VA UNING IQTISODIY HAYOTGA TA'SIRI.....	78
6. Xayitov Shodmon Ahmadovich MILLAT FIDOIYSI, OZODLIK VA ERKINLIKNING TOLMAS KURASHCHISI (MAHMUD XO'JA BEHBUDIYNING MA'NAVIY MEROSIGA BIR NAZAR).....	83
7. Matyaqubova Nozima Maksatbayevna QADIMGY XORAZM SUG'ORISH TIZIMLARI OQCHADARYO VA SARIQAMISHBO'YI O'ZANLARI ASOSIDA DEHQONCHILIK VA MADANIY TARAQQIYOT.....	89
8. Durdona Jamolova BUXORODA GIDLIK XIZMATINI RIVOJLANTIRISHDA TARIXIY RISOLALAR VA MATBUOT MATERIALLARINING MANBAVIY AHAMIYATI.....	93
9. Egamov Yusufboy Ergashbek o'g'li O'ZBEKISTONDA YOSHLARNING DAVLAT BOSHQARUVI VA QONUNCHILIK JARAYONLARIDA ISHTIROKINI MUSTAHKAMLASHDA YOSHLAR PARLAMENTINING O'RNI.....	98
10. Matnazarova Gulnoz Baxtiyorovna QUYI AMUDARYO HUDUDIDA NEOLIT DAVRI POLEOGEOGRAFIYASI HOLATI, O'ZLASHTIRISH BOSQICHLARI.....	103
11. Sanjarbek Davletov, Kamronbek Davlatov YANGI O'ZBEKISTON TASHQI SIYOSATIDA MINTAQAVIY INTEGRATSIYA VA HAMKORLIK.....	107
12. Salimov Matyusuf Kodirberganovich XX ASR BOSHLARIDA NIZOMIDDIN OXUN SALIMOVNING TA'LIM TIZIMIDAGI FAOLIYATI.....	111
13. O'g'iloy Erbo'tayeva Suyunovna IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA DEPORTATSIYA QILINGAN XALQLAR TAQDIRI.....	115
14. Qurbonova Sevara Sodiq qizi XORAZM VOHASIDA URUG'CHILIK JAMIYATINING GEOSIYOSIY SHAKLLANISHI.....	120
15. Сулайманова Сохиба Баходировна СУҒД ВОҲАСИНИНГ ҚАДИМГИ ПАНЧ ТАНГАЛАРИ.....	125
16. Bahridil Ergasheva O'ZBEK XALQINING BOLA TARBIYASIGA OID USULLARI: TARIXIY-ETNOGRAFIK YONDOSHUV.....	129

O'g'iloy Erbo'tayeva Suyunovna-

Tarix fanlari nomzodi, dotsent

Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyi direktori

IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA DEPORTATSIYA QILINGAN XALQLAR TAQDIRI


<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15363007>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Ikkinchi jahon urushi yillarida Sovet Ittifoqi tomonidan amalga oshirilgan etnik deportatsiyalar jarayoni, uning sabablari, siyosiy-ma'naviy mohiyati va tarixiy oqibatlari tahlil qilinadi. Maqola doirasida qrim tatarlari, chechenlar, koreyslar, qalmoqlar, mesxeti turklari va boshqa xalqlarning boshidan kechirgan surgun hayoti, ularning ijtimoiy-ma'naviy muammolari hamda deportatsiya natijasida yuzaga kelgan demografik, madaniy va psixologik oqibatlar batafsil ko'rib chiqilgan. Shuningdek, deportatsiya qilingan xalqlarning yangi hududlardagi hayoti, ijtimoiy moslashuvi va keyingi rehabilitatsiya jarayonlari ilmiy asosda yoritilgan. Maqola tarixiy manbalar, arxiv hujjatlari va zamonaviy tadqiqotlar asosida yozilgan bo'lib, bugungi avlod uchun tarixiy saboq va xotira vazifasini bajaradi.

Kalit so'zlar: Ikkinchi jahon urushi, deportatsiya, etnik siyosat, Sovet Ittifoqi, qrim tatarlar, chechenlar, koreyslar, rehabilitatsiya, tarixiy adolat, etnik repressiyalar, inson huquqlari, surgun, totalitar tuzum, milliy siyosat, arxiv manbalari.

Ugiloy Erbutaeva Suyunovna-

Candidate of Historical Sciences, Associate Professor

Director of the Museum of Memory of Victims of Repression

THE FATE OF PEOPLES DEPORTED DURING THE SECOND WORLD WAR

ABSTRACT

This article analyzes the process of ethnic deportations carried out by the Soviet Union during the Second World War, their causes, political and spiritual essence, and historical consequences. The article examines in detail the exiled lives of Crimean Tatars, Chechens, Koreans, Kalmyks, Meskhetian Turks, and other peoples, their social and spiritual challenges, and the demographic, cultural, and psychological consequences of deportation. Additionally, the lives of deported peoples in new territories, their social adaptation, and subsequent rehabilitation processes are explored on a scientific basis. The article is based on historical sources, archival documents, and modern research, serving as a historical lesson and memorial for today's generation.

Keywords: Second World War, deportation, ethnic policy, Soviet Union, Crimean Tatars, Chechens, Koreans, rehabilitation, historical justice, ethnic repressions, human rights, exile, totalitarian regime, national policy, archival sources.

Угиллой Эрбутаева Суюновна-Кандидат исторических наук, доцент
Директор Музея памяти жертв репрессий**СУДЬБА ДЕПОРТИРОВАННЫХ НАРОДОВ В ГОДЫ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ****АННОТАЦИЯ**

В данной статье анализируется процесс этнических депортаций, осуществленных Советским Союзом в годы Второй мировой войны, его причины, политико-духовная сущность и исторические последствия. В рамках статьи подробно рассматривается жизнь в изгнании крымских татар, чеченцев, корейцев, калмыков, турок-месхетинцев и других народов, их социально-духовные проблемы, а также демографические, культурные и психологические последствия депортации. Также на научной основе освещены жизнь депортированных народов на новых территориях, их социальная адаптация и последующие процессы реабилитации. Статья написана на основе исторических источников, архивных документов и современных исследований и служит историческим уроком и памятью для нынешнего поколения.

Ключевые слова: Вторая мировая война, депортация, этническая политика, Советский Союз, крымские татары, чеченцы, корейцы, реабилитация, историческая справедливость, этнические репрессии, права человека, изгнание, тоталитарный режим, национальная политика, архивные источники.

KIRISH VA DOLZARBLIGI

Ikkinchi jahon urushi insoniyat tarixidagi eng yirik va dahshatli harbiy mojarolardan biri bo'lib, 1939-yildan 1945-yilgacha davom etdi. Bu urushda yuz millionlab odamlar ishtirok etdi, millionlab insonlar halok bo'ldi, ko'plab davlatlar iqtisodiy, siyosiy va madaniy inqirozga yuz tutdi. Biroq urushning halokatli oqibatlarini nafaqat jang maydonlarida, balki urushdan yiroqda yashayotgan tinch aholiga ham bevosita ta'sir ko'rsatdi. Ayniqsa, Sovet Ittifoqida yashayotgan ayrim millat vakillari o'z etnik kelib chiqishi yoki siyosiy sabablarga ko'ra jazo choralari sifatida ommaviy deportatsiyaga uchrigan.

Deportatsiya — bu aholining ma'lum bir qismini o'z ixtiyoriga qarshi ravishda yashab turgan hududidan boshqa joyga ko'chirish bo'lib, u asosan siyosiy, harbiy yoki etnik sabablar bilan amalga oshirilgan. Ikkinchi jahon urushi yillarida Sovet Ittifoqi tomonidan o'tkazilgan deportatsiyalar tarixiy, demografik va madaniy jihatdan ulkan yo'qotishlarga olib keldi. Ko'chirilgan xalqlar ko'pincha asossiz ayblovlar, masalan, "xalq dushmani", "germaniyaliklarga hamkorlikda bo'lgan" yoki "Sovet hokimiyatiga sodiq emas" degan tamg'a bilan surgun qilinardi. Bu holat ularga nisbatan jismoniy va ma'naviy zulm, madaniy identifikatsiyaning yo'qolishi, iqtisodiy tanglik va ijtimoiy ajratishga sabab bo'ldi.

Deportatsiya qilingan xalqlar orasida qrim tatarlar, chechenlar, ingushlar, mesxeti turklari, qalmoqlar, volga bo'yi nemislari, koreyslar va boshqalar bor edi. Ularning aksariyati Qozog'iston, O'zbekiston, Sibir va Markaziy Osiyoning boshqa chekka hududlariga surgun qilindi. Ushbu xalq guruhlari nafaqat o'z yerlaridan majburan ajratildi, balki u yerda qoldirgan mol-mulkleri, madaniy va diniy yodgorliklari ham yo'qotildi. Aksariyat hollarda deportatsiya qilinayotganlar o'zlarini qayerga olib ketilayotganini ham bilmagan holda, sovuq, ochlik, kasallik va zo'ravonliklarga duchor bo'lgan.

Ikkinchi jahon urushi yillarida amalga oshirilgan deportatsiyalar — bu faqat urush strategiyasi emas, balki o'sha davrda hukm surgan totalitar tuzumning inson huquqlari va milliy tenglik prinsiplariga qarshi ochiq tahdidi edi.

METODLAR VA O'RGANILISH DARAJASI

Ushbu ilmiy maqolani tayyorlashda tarixiy-tahliliy yondashuv asos qilib olindi. Tadqiqot predmeti sifatida 1940–1950-yillar oralig'ida Sovet Ittifoqida amalga oshirilgan ommaviy

deportatsiya siyosati va uning etnik guruhlarga ta'siri o'rganildi. Maqolada quyidagi metodlar qo'llanildi:

Tarixiy metod – voqealar davriy ketma-ketlikda o'rganilib, deportatsiya harakatlarining sabablari, kechishi va oqibatlari aniqlab borildi.

Komparativ (taqqoslov) tahlil – turli etnik guruhlar taqdirini solishtirish asosida deportatsiya siyosatining umumiy va farqli jihatlari ochib berildi.

Tahliliy metod – tarixiy manbalar, hujjatlar, statistik ma'lumotlar va ilmiy adabiyotlar asosida deportatsiya siyosatining mohiyati chuqur tahlil qilindi.

Sotsiologik yondashuv – deportatsiyadan keyingi jamiyatga moslashish jarayoni, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar va milliy identitet masalalari ijtimoiy nuqtai nazardan ko'rib chiqildi.

Shuningdek, maqola yozishda obyektivlik, xolislik va tarixiy haqiqatga sodiqlik prinsiplariga amal qilindi. Har bir fakt muayyan tarixiy hujjatlar va ilmiy tadqiqotlar bilan asoslandi.

Ushbu mavzuni yoritishda foydalanilgan adabiyotlar quyidagi asosiy yo'nalishlarga bo'linadi:

Ilmiy monografiyalar va tarixiy tadqiqotlar. Bugai N.F. tomonidan yozilgan *"Iosif Stalin. Deportatsiya i repressii. Narody, narodnosti, etnicheskiye gruppi"* asari (Moskva, 1995) deportatsiya harakatlarining huquqiy asoslari, Stalin siyosatining sabablari va ijtimoiy oqibatlarini chuqur o'rganadi. Williams B.ning *"The Crimean Tatars: The Diaspora Experience and the Forging of a Nation"* (2001) nomli asari qrim tatarlarining deportatsiyasi va diasporadagi kurashini yoritadi. Nekrich A. L.ning *"The Punished Peoples: The Deportation and Fate of Soviet Minorities at the End of the Second World War"* (1978) nomli tadqiqoti deportatsiyaga uchragan ko'plab xalqlarning taqdiri haqida muhim ma'lumotlarni beradi.

Arxiv hujjatlar va statistik ma'lumotlar. Sovet Ittifoqi Kommunistik partiyasi Markaziy qo'mitasining qarorlari va NKVD tomonidan e'lon qilingan maxfiy farmonlar asosiy birlamchi manba sifatida xizmat qildi. Rossiya Federal Arxiv xizmati (GARF) va O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivi ma'lumotlari asosida deportatsiya miqyoslari va yo'qotishlar statistikasi tahlil qilindi.

Memuar va guvohliklar. Deportatsiyaga uchragan shaxslarning xotiralari, intervyulari va og'zaki tarix materiallari tarixiy jarayonlarning ichki ruhiy holatini ko'rsatishga xizmat qildi. Xususan, O'zbekiston va Qozog'istonda yashagan deportatsiya qurbonlari avlodlarining og'zaki tarixga oid hikoyalari milliy arxiv va kutubxonalar orqali o'rganildi.

Ilmiy maqolalar va dissertatsiyalar. O'zbekiston va Rossiyadagi oliy ta'lim muassasalarida yozilgan bir qancha dissertatsion ishlar, xususan deportatsiya siyosatining ijtimoiy-madaniy oqibatlariga bag'ishlangan ilmiy maqolalar tahlil qilindi.

Xalqaro huquqiy hujjatlar va Inson huquqlari deklaratsiyasi. Deportatsiya xalqaro huquq normalari nuqtai nazaridan ham baholab borildi. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948) va Yevropa inson huquqlari konvensiyasi mezonlari asosida deportatsiya siyosatining xalqaro huquqqa zid jihatlari ko'rsatib berildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Sovet deportatsiya siyosatining mohiyati. Ikkinchi jahon urushi davrida Sovet Ittifoqida milliy xavfsizlik va ichki siyosat masalalari markazlashgan tarzda hal qilinar edi. Iosif Stalin boshchiligidagi tuzumda markaziy hokimiyatga nisbatan "sodiqlik" mezoni asosiy siyosiy o'lovga aylangan edi. Ayrim etnik guruhlar urush davrida "ishonchsiz", "dahshat soluvchi" yoki "xalq dushmani" sifatida e'lon qilinib, ommaviy ravishda o'z yurtlaridan boshqa mintaqalarga ko'chirildi. Bu holat "profilaktik xavfsizlik" deb atalgan siyosiy mafkura bilan asoslab berildi, ammo aslida bu etnik tozalash, ijtimoiy muvozanatni buzish va markaziy hokimiyatga nisbatan har qanday qarshilik ehtimolini yo'q qilish siyosati edi.

Deportatsiya qilingan asosiy xalqlar va ularning taqdiri

a) Volga bo'yi nemislari (1941-yil, avgust). Nemis-tillarida so'zlashuvchi Volga bo'yi aholisi Rossiyaning eng qadimiy va muhim etnik guruhlaridan biri edi. Urush boshlanishi bilan, ularga qarshi kuchli ishonchsizlik kuchaydi. 1941-yil 28-avgustda chiqarilgan maxfiy farmonga

binoan 400 mingdan ortiq nemislar O'zbekistonga, Qozog'istonga, Sibir va Ural mintaqalariga deportatsiya qilindi. Deportatsiya vaqtida juda ko'plab odamlar sovuq, ochlik va transport sharoitining og'irligi sababli vafot etdi. Ularning madaniy muassasalari yopildi, nemis maktablari bekor qilindi, bosma nashrlar taqiqlanib, nomlari ruslashtirildi.

b) Koreyslar (1937-yil). Urushdan avval, 1937-yilda SSSRning Uzoq Sharq mintaqasida yashovchi 170 mingdan ortiq koreyslar Yaponiya foydasiga josuslikda ayblanib, O'zbekiston va Qozog'istonga ko'chirildi. Ularga ruxsat etilmagan joylarda yashash taqiqlanib, harakat erkinligi cheklangan edi. Koreyslar asosiy mehnat kuchi sifatida paxtachilik, qishloq xo'jaligi va sanoat sohalarida ishlatildi.

c) Chechenlar va ingushlar (1944-yil, fevral). "Operatsiya Lentil" nomi bilan mashhur bo'lgan deportatsiya 1944-yil 23-fevralda boshlangan. KGB, NKVD va armiya kuchlari tomonidan amalga oshirilgan bu operatsiya davomida 500 mingga yaqin chechen va ingushlar Gruziya, O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'izistonga jo'natildi. Deportatsiya yomon tashkil etilgan bo'lib, ko'plab odamlar yo'lda vafot etdi. Ma'lumotlarga ko'ra, surgun qilinganlarning kamida 30 foizi 1-2 yil ichida halok bo'lgan (Bugai, 1996). Ularning qishloqlari yo'qotildi, tarixiy yodgorliklari vayron qilindi, madaniyati repressiyaga uchradi.

d) Qrim tatarlar (1944-yil, may). Qrim tatarlar Germaniya bilan hamkorlikda bo'lganlikda ayblanib, 1944-yil 18-may kuni qamrab olingan "Krim" operatsiyasi doirasida butun bir xalq – 200 mingdan ortiq odam bir kechada O'zbekistonga va Markaziy Osiyoning boshqa mintaqalariga surgun qilindi. Deportatsiya o'ta shafqatsiz tarzda o'tkazildi: odamlar poyezd vagonlariga zo'rlik bilan tiqib jo'natildi, ularga oziq-ovqat va tibbiy yordam ta'minlanmadi. 1944–1947-yillarda deportatsiya qilinganlarning 46 foizigacha bo'lgan qismi halok bo'lgan (Williams, 2001). Qrim tatarlari o'z yurti – Qrimga 1980-yillargacha qayta olmadi.

e) Mesxeti turklari (1944-yil, noyabr-dekabr). Gruziyaning Mesxeti mintaqasida yashovchi turk tilida so'zlashuvchi musulmon aholi (mesxeti turklari) ham "turkiy agressiyaning oldini olish" nomi bilan Gruziyadan chiqarildi. Ular 91 mingga yaqin bo'lib, qisqa vaqt ichida Qozog'iston, O'zbekiston va boshqa hududlarga surgun qilindi. Mesxeti turklari o'z vatani — Mesxetiyaning qaytish umidida deyarli yarim asr yashashdi, biroq bu imkoniyat ularga taqdim etilmadi.

Deportatsiyadan keyingi yashash sharoitlari. Deportatsiyaga uchragan xalqlar yashash uchun asosan iqlimi og'ir, infratuzilmasi yaxshi rivojlanmagan mintaqalarga yuborilgan edi. Ular "maxsus posyolka"larda yashashga majbur bo'lishgan, bu joylarda pasport tizimi yo'q edi, harakat erkinligi taqiqlangan edi. Ishga joylashishda va ta'lim olishda milliy ajratish holatlari kuzatilgan. Davlat tomonidan ularga "ishonchsiz" maqomi biriktirilib, ularning harakatlari doimiy nazorat ostida bo'lgan. Qishloq xo'jaligi, qurilish, kon sanoati kabi og'ir mehnat talab qilinadigan sohalarga jalb etilgan deportatsiyachilar ko'pincha maosh olmagan yoki juda past haq evaziga ishlashgan.

Ijtimoiy-madaniy yo'qotishlar. Deportatsiya qilingan xalqlarning o'z ona yurti bilan aloqasi uzildi, diniy erkinliklar cheklangan, masjidlar va cherkovlar yopildi. Ularning tillarida ta'lim olish, ommaviy axborot vositalaridan foydalanish imkoniyati deyarli yo'q edi. Bir necha avlodlar o'z milliy ildizlaridan uzilgan holda yashashga majbur bo'ldi. Bu holat ko'plab madaniy qadriyatlarining yo'q bo'lishiga, etnik identitetning so'nishiga olib keldi.

Reabilitatsiya va qaytish harakatlari. 1956-yilda Sovet Ittifoqining yangi rahbari Nikita Xrushchov tomonidan olib borilgan "*shaxsga sig'inishni fosh qilish*" siyosati asosida ba'zi xalqlarga reabilitatsiya e'lon qilindi. Chechenlar, ingushlar va qalmoqlar o'z yurtlariga qaytishga ruxsat olishdi, ammo bu jarayon og'ir kechdi. Qrim tatarlar, mesxeti turklari va Volga bo'yi nemislari esa o'z tarixiy yurtlariga qayta olmasdan uzoq yillar mobaynida huquqsizlikda yashashdi. Faqatgina 1989-yildan so'ng sobiq ittifoq tarkibidagi respublikalarda bu guruhlarining muammolari ochiq muhokama qilina boshlandi.

XULOSA

Ikkinchi jahon urushi yillari Sovet Ittifoqi tarixida nafaqat g'alabalar, balki insoniyatga qarshi sodir etilgan ko'plab adolatsizliklar, jumladan, etnik guruhlarining ommaviy deportatsiyasi bilan ham esda qolgan. "Xavfsizlik", "ishonchsizlik" yoki "xalq dushmani" tamg'asi ostida turli millat vakillarining surgun qilinishi bu davlat siyosatining totalitar va repressiv xususiyatlarini

ochiq namoyon etadi. Deportatsiya nafaqat jismoniy azob-uqubat, balki butun boshli xalqlarning tarixiy xotirasi, madaniyati va milliy o'zligini jiddiy yo'qotishga olib kelgan murakkab va fojiali jarayon bo'ldi.

Mazkur siyosat natijasida millionlab insonlar vatandan yiroqda, o'zlari tanlamagan, qattiq iqlim va qoloq infratuzilmaga ega mintaqalarda og'ir mehnat sharoitida yashashga majbur bo'ldi. Ularning asosiy huquqlari – yashash joyini tanlash, erkin harakatlanish, ta'lim olish, diniy marosimlar o'tkazish kabi insoniy erkinliklar mutlaqo cheklab qo'yildi. Deportatsiya qilingan xalqlarning ko'pchiligi uzoq yillar davomida o'z tarixiy vatani, o'z madaniy ildizlari bilan bog'lanish imkoniyatidan mahrum bo'ldi. Bu esa ularning jamoaviy xotirasida chuqur iz qoldirdi va avloddan avlodga o'tuvchi ma'naviy jarohatga aylandi. Shu bilan birga, surgun qilingan xalqlar qayerda bo'lmasin, mehnatsevarlik, sabr-toqat va ma'naviy bardosh orqali yashab qolishga va jamiyatga integratsiyalashishga harakat qildilar. O'zbekiston, Qozog'iston va boshqa respublikalarda ular o'zlariga yangi hayot qurishga intildi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga hissa qo'shdi. Bu mintaqalar xalqlarining bag'rikengligi va insoniy yondashuvi bilan ular asta-sekin ijtimoiylashdi, lekin tarixiy adolat tiklanmadi.

Bugungi kunda ushbu tarixiy voqealarni xolis va chuqur o'rganish, fojialardan saboq chiqarish nihoyatda muhimdir. Deportatsiya qilingan xalqlarning taqdiri bugungi avlodga o'tmish xatolarini tan olish, inson huquqlari, millatlararo totuvlik va adolat prinsiplariga hurmat bilan yondashish zarurligini eslatadi. Shu sababli, bu mavzu faqat tarixiy xotira emas, balki zamonaviy jamiyatlar uchun ogohlik va ma'naviy saboq manbai sifatida dolzarbdir.

Tarixni unutmaslik — bu nafaqat o'tmishdagi adolatsizliklarni tan olish, balki kelajakda xatolar takrorlanishining oldini olish yo'lidagi eng muhim qadamlardan biridir. Shunday ekan, deportatsiya qilingan xalqlarning fojiasi bugungi va ertangi avlod uchun insonparvarlik, tolerantlik va adolatli jamiyat qurish yo'lida unutilmas saboq bo'lib qoladi.

Iqtiboslar/References/Сноски

1. Bugai N.F., *Iosif Stalin. Deportatsiya i repressii. Narody, narodnosti, etnicheskiye gruppi*, Drujba narodov, Moskva, 1995, 327 bet.
2. Nekrich A.L., *The Punished Peoples: The Deportation and Fate of Soviet Minorities at the End of the Second World War*, W.W. Norton & Company, New York, 1978, 272 bet.
3. Williams B., *The Crimean Tatars: The Diaspora Experience and the Forging of a Nation*, Brill Academic Publishers, Leiden–Boston, 2001, 340 bet.
4. Polian P., *Against Their Will: The History and Geography of Forced Migrations in the USSR*, Central European University Press, Budapest, 2004, 425 bet.
5. Sultonov A., *Sovet davrida O'zbekiston: deportatsiya siyosati va uning oqibatlari*, Fan nashriyoti, Toshkent, 2012, 218 bet.
6. Karimov B., *XX asrda Markaziy Osiyodagi etnik siyosatning ba'zi jihatlari*, O'zRFA Tarix instituti, Toshkent, 2016, 145 bet.
7. Gofurova Z., *Qrim tatarlarining deportatsiya tarixidan*, O'zbekiston tarixi, 2019, №3, 45–52-betlar.
8. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivi fondlari, F. R-836, ro'yxat 5, ish 147, 1944-yilgi hujjatlar.
9. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, BMT Bosh Assambleyasi, 10-dekabr 1948-yil.
10. Yevropa inson huquqlari konvensiyasi, Yevropa Kengashi, Rim, 1950-yil.

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

3 JILD, 4 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 3, HONEP 4

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 3, ISSUE 4

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000